

**INTERNATIONAL CONFERENCE PEDAGOGICAL REFORMS
AND THEIR SOLUTIONS
VOLUME 5, ISSUE 1, 2024**

**YANGI BAHOLASH MEZONLARIDAN FOYDALANISHNING O'ZIGA XOS
METODIKASI**

Shahlo Ergasheva Shoabdullo qizi

O'qituvchi, QDPI magistranti

shahloergasheva7@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu “Yangi baholash mezonlaridan foydalanishning o‘ziga xos metodikasi” mavzusidagi maqola mакtabda ta’lim oluvchi yuqori sinf o‘quvchilarining qobiliyati va tanlovi asosida ta’lim jarayonlarini tashkil etish bo‘yicha tajriba-sinov o‘tkaziladigan umumta’lim maktablarida yangi baholash jarayonlarini tashkil etish bo‘yicha tartibga muvofiq o‘quvchilarni dars davomida qanday baholash kerakligi haqida fan o‘qituvchilari uchun o‘quv qo‘llanma hisoblanadi. Ushbu maqoladan matematika fani o‘qituvchilari o‘z faoliyati davomida foydalanishi mumkin.

Kalit so’zlar: yangi baholash tartibi , baholash mezoni, ijodiy fikrlash, tanqidiy fikrlash, muloqot, kooperatsiya.

Annotation: This article on the topic “specific methodology for using new assessment criteria” is a tutorial for science teachers on how to evaluate students during the course of the lesson in accordance with the regulation on the organization of new assessment processes in comprehensive schools, where an experimental test is carried out on the basis of the ability and choice of upper-class students studying at the school. This article can be used by teachers of mathematics throughout their career.

Keywords: new evaluation procedure , evaluation criterion, creative thinking, critical thinking, communication, cooperation.

Аннотация: данная статья “специфическая методика использования новых критериев оценки” является учебным пособием для учителей-предметников о том, как оценивать учащихся в ходе урока в соответствии с регламентом организации новых оценочных процессов в общеобразовательных школах, где проводится эксперимент по организации образовательных процессов на основе способностей и отбора старшеклассников, обучающихся в школе. Эта статья может быть использована учителями математики в своей карьере.

Ключевые слова: новый порядок оценки , критерий оценки, творческое мышление, критическое мышление, общение, сотрудничество.

Mezonga asoslangan baholash tizimi haqida ma'lumot


Amaldagi baholash tizimida chorak yakuniga ko‘ra o‘quvchi qanday bilim va ko‘nikmalarini egallaganini baholash mumkin bo‘lgan aniq mezonlar mavjud emas.

An'anaviy baholash tizimi o‘quvchining darsga tayyorgarligini muntazam tekshirish va baho qo‘yish bilan tavsiflanadi. Shu bilan birga, barcha o‘quvchilar bilimini baholash bitta o‘qituvchining shaxsiy munosabati va bilimidan kelib chiqib amalga oshiriladi, baholash jarayoni to‘liq inson omiliga bog‘liq, zamonaviy talablarga mos keladigan individual yondashuv va aniq baholash mezonlari mavjud emas.

Mavjud baholash tizimi nimasi bilan bizni qanoatlantirmaydi?

- Bir o‘quvchining hamda bir sinf o‘quvchining bilim darajasi bitta insonning potensialiga bog‘liq.
- Har bir o‘quvchiga zamon talabi bo‘yicha individual yondashishning imkoniyati yo‘qday ko‘rinadi.
- Baholash uchun aniq mezonlarning yo‘qligi.
- Kimdir jon berib ishlasa, kimdir faqat kelib-ketadi. Lekin choraklik natijasi hammasida bir xil.
- O‘quvchining past o‘zlashtirayotganini bilamiz, lekin asl sababini ko‘ra olmaymiz.
- O‘qituvchida ham, o‘quvchida ham belgilangan maqsadning aniq emasligi.
- Baholashning subyektivligi.

Mezonga asoslangan baholash tizimida zamirida 4K usuli — ijodiy fikrlash, tanqidiy fikrlash, muloqot va kooperatsiya (hamkorlik) yotadi.



Tizim quyidagi tamoyillarga asoslangan:

- Reproduktiv daraja (bilim). Reproduktiv darajadagi topshiriqlar mazmuni o‘quvchilarning, o‘quv materialini qayta ishlagagan holda esda saqlab qolish qobiliyatini aniqlab beruvchi qonunlar, xossalari, formulalar, tushunchalar va atamalarning mohiyatini o‘rganish, eslab qolish va idrok etishga mo‘ljallangan.
- Produktiv daraja (qo'llash). Topshiriqlar mazmuni mavzuni o‘zlashtirishda fanning qonun va qonuniyatları, xossalari va formulalarini qo'llash, berilgan topshiriqlarga mos usullarni tanlash, tahlil qilish, taqqoslash va qarama-qarshi qo'yish, bir qancha qonun va qonuniyatlardan foydalanishdan iborat. Shu bilan birga, umumlashtirish va xulosa qilish talab etiladi.
- Mulohaza yuritish. Intellektual darajadagi topshiriqlarning mazmuni o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni notanish vaziyatlarda qo'llashni, qonun va qonuniyatlardan foydalangan holda tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirishni talab qiladi.




Yangi baholash tizimiga ko'ra yig'ilgan ballarning 5 ballik shkalaga o'tkazilishi.

O'quvchilar haftasiga kamida 2 soat o'qitiladigan fanlardangina 100 ball toplashi kerak.

Haftasiga 1 soat ajratilgan fanlardan (masalan, tasviriy san'at, musiqa) olti oyda (ikki chorak davomida) 100 ball toplashi talab etiladi.

O'quvchilar tomonidan 100 ball qanday to'planadi?



Yangi baholash tizimiga ko'ra 100 ball o'qituvchi tomonidan formativ baholash (10 ball) va yig'ma baholash (90 ball) asosida to'planadi.

**INTERNATIONAL CONFERENCE PEDAGOGICAL REFORMS
AND THEIR SOLUTIONS
VOLUME 5, ISSUE 1, 2024**

100 balldan 10 ball o‘qituvchi tomonidan qo‘yiladi — bu subyektiv baho. Bu darsga tayyorgarlik, uy vazifasini bajarish va dars vaqtidagi faollik uchun beriladi. O‘qituvchi bitta o‘quvchiga 3–4 ta shunday baho qo‘yishi va chorak yakunida ulardan o‘rtacha ball chiqarishi mumkin.

T/r	Izoh	Ball
1	<p>Darsda ishtiroki:</p> <ul style="list-style-type: none"> - o‘quvchi darsning hamma qismalarida faol, savollarga aniq va to‘g‘ri javob bersa, guruh va juft bo‘lib ishlashda ham faoliyk darajasi yuqori bo‘lsa – 6 ball; - o‘quvchi darsning ayrim qismalarida juda faol, savollarga to‘g‘ri javob beradi, ayrim hatolarga yo‘qoysa – 5 ball; - o‘quvchi darsda faol lekin savollarga ikkilanib javob bersa, guruh, juft bo‘lib ishlaganda faoliyk darajasi past – 4 ball; - o‘quvchi dars davomida faol ishtirok etsa va to‘g‘ri bo‘limgan fikrlar bildirsa – 3 ball; - o‘quvchi dars davomida savollarga noto‘g‘ri javob bersa, o‘quvchilar orasida darsdagi faoliigi sezilarli bo‘lmasa – 2 ball; - o‘quvchining darsda ishtiroki sezilarli bo‘lmasa – 1 ball. 	6 ball
2	<p>Uyga vazifalarni bajarishi:</p> <ul style="list-style-type: none"> - uyga vazifani to‘liq va hatoliksiz bajargan bo‘lsa – 4 ball; - uyga vazifani bajargan, hato va kamchiliklar mavjud bo‘lsa – 3 ball; - uyga vazifani qisman bajargan, hatoliklar ko‘p bo‘lsa – 2 ball; - uyga vazifani deyarli bajarmagan bo‘lsa - 1 ball; - uyga vazifani bajarmagan bo‘lsa - 0 ball; 	4 ball
JAMI		10 ball

O‘qituvchi tomonidan qo‘yiladigan 10 ball o‘quvchining darsdagi ishtiroki (6 ball) va uyga vazifani bajarganlik (4 ball) uchun beriladi.

BSB topshiriqlari

 Test	 Lab
 Loyiha ishi	 Ijodiy ish
 Diktant	 Yozma ish

Yig‘ma baholash uchun topshiriqlar markazda tayyorlanadi va mamlakatdagi yangi tizim joriy etilgan barcha maktablarga tarqatiladi.

Topshiriqlar testlar, loyihalar, laboratoriya ishlari va boshqalardan iborat.

Qolgan 90 ballni o‘quvchining o‘zi to‘playdi.

Baholashning yangi tizimi o‘quvchiga bahoni nima uchun olgani, nimani tuzatish kerakligi, yuqori ball olmagan taqdirda, nimaga ko‘proq e’tibor qaratishi kerakligini ko‘rish imkonini beradi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytamizki, “Yangi baholash mezonlaridan foydalanishning o‘ziga xos metodikasi” mavzusidagi maqola yuqori sinf o‘quvchilarining qobiliyati va tanlovi asosida ta’lim jarayonlarini tashkil etish bo‘yicha tajriba-sinov o‘tkaziladigan umumta’lim maktablarida yangi baholash jarayonlarini tashkil etish bo‘yicha tartibga muvofiq o‘quvchilarni dars davomida qanday baholash kerakligi haqida o‘qituvchilar uchun o‘quv qo‘llanma hisoblanadi. Ushbu maqoladan fan o‘qituvchilari o‘z faoliyati davomida foydalanishi mumkin. Ushbu maqola o‘qituvchilarga va o‘quvchilarga kerakli manba bo‘lib xizmat qiladi degan umiddamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 7 maydagi “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ 4708- qarori
2. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. T.: “O‘zbekiston” -2017 yil.14 yanvar.104 bet.
3. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va loijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: “O‘zbekiston” 2017 486 bet.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 26-maydagi PF-79-son Farmoni